

PIROTEKNIKA BUYUMLARINING QONUNGA XILOF MUOMALASI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
o'qituvchisi, leytenant
A.O.Toshmurodov

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada pirotexnika (protexnika) buyumlarining kelib chiqishi, yaratilish tarixi va rivojlanish bosqichlari, ularning zamonaviy jamiyatlardagi o'rni hamda pirotexnika buyumlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning o'ziga xos jihatlari ilmiy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida pirotexnika buyumlarining erkin muomalasi taqiqlanishi, ushbu taqiqning huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada pirotexnika buyumlarining yuqori xavflilik darajasi, ularning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq ijtimoiy xavf va salbiy oqibatlar ochib berilgan hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga doir taklif va xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Pirotexnika buyumlari, protexnika, portlovchi moddalar, jamoat xavfsizligi, qonunga xilof foydalanish, ma'muriy javobgarlik, jamoat tartibi, huquqbuzarlik, pirotexnika muomalasi.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье с научно-правовой точки зрения проанализированы происхождение, история создания и этапы развития пиротехнических изделий, их место в современном обществе, а также особенности правонарушений, связанных с незаконным использованием пиротехнических изделий. Также освещены запрет на свободное обращение пиротехнических изделий в Республике Узбекистан, правовые основы и практическое значение данного запрета. В статье раскрывается высокий уровень

опасности пиротехнических изделий, социальные риски и негативные последствия, связанные с их незаконным оборотом, а также выдвигаются предложения и выводы по предотвращению правонарушений.

Ключевые слова: Пиротехнические изделия, протехника, взрывчатые вещества, общественная безопасность, незаконное использование, административная ответственность, общественный порядок, правонарушение, обращение с пиротехникой.

ANNOTATION

This scientific article analyzes the origin, history of creation, and stages of development of pyrotechnic products, their place in modern society, as well as the specifics of offenses related to the illegal use of pyrotechnic products, from a scientific and legal perspective. The ban on the free circulation of pyrotechnic products in the Republic of Uzbekistan, its legal basis, and practical significance are also highlighted. The article reveals the high level of danger of pyrotechnic products, social risks, and negative consequences associated with their illegal circulation, as well as proposals and conclusions on preventing offenses.

Keywords: Pyrotechnic products, protective equipment, explosives, public safety, illegal use, administrative liability, public order, offense, handling of pyrotechnics.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti davomida olov va portlovchi moddalar alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, pirotexnika (protexnika) buyumlari inson tomonidan boshqariladigan yonish va portlash jarayonlariga asoslangan texnik vositalar sifatida tarixiy, madaniy hamda ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallaydi. Dastlab harbiy va signal berish maqsadlarida yaratilgan pirotexnika vositalari vaqt o‘tishi bilan ko‘ngilochar, marosimiy va sanoat ehtiyojlari uchun keng qo‘llanila boshladi. Biroq

mazkur buyumlarning yuqori xavflilik darajasi ularning muomalasini qat'iy huquqiy nazorat ostiga olish zaruratini keltirib chiqardi.

Pirotexnika buyumlari — tarkibida yonuvchi yoki portlovchi kimyoviy moddalari mavjud bo'lib, yoqilganda yorug'lik, tovush, tutun, rangli effekt yoki portlash hosil qiluvchi texnik vositalardir. Ushbu buyumlar asosan: bayram va tomosha tadbirlarida, signal berish maqsadida, sanoat va maxsus xizmatlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Pirotexnika buyumlari o'zining fizik-kimyoviy xususiyatlariga ko'ra yuqori xavf manbai hisoblanadi. Ularning noto'g'ri ishlatilishi inson hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi, yong'inlar, portlashlar hamda jamoat tartibini buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli aksariyat davlatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham pirotexnika buyumlarining muomalasi qat'iy huquqiy tartibga solingan.

Pirotexnika buyumlarining yaratilish tarixi milodiy IX-XIII asrlarga borib taqaladi. Qadimgi Xitoyda poroxning kashf etilishi pirotexnika sanoatiga asos soldi. Dastlab porox diniy marosimlar, yovuz ruhlarni haydash va signal berish uchun qo'llanilgan. Ushbu bosqichda pirotexnika buyumlari asosan sodda va nazoratsiz bo'lgan. XIII-XVII asrlarda Porox Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga tarqalishi bilan pirotexnika vositalari harbiy sohada keng qo'llanila boshlandi. Ushbu davrda pirotexnika: jangovar signallar, qo'rqitish va chalg'itish vositasi, qal'a va istehkomlarni himoyalash maqsadlarida ishlatilgan. XVII-XIX asrlarda esa pirotexnika san'ati rivojlanib, rangli olovlar, turli shakldagi salyutlar yaratilgan. Bayramlar va saroy marosimlarida pirotexnika buyumlari muhim estetik vositaga aylangan. Keyinchalik sanoat inqilobi, kimyo va texnologiya fanlarining rivojlanishi natijasida pirotexnika buyumlari ommaviy ishlab chiqarila boshladi. Ularning turi ko'paydi, xavflilik darajasi esa saqlanib qoldi. Aynan shu davrda pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq muammolar keskinlashishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasida pirotexnika buyumlarining erkin muomalasi 2009-yildan boshlab taqiqlangan. Ushbu taqiqning asosiy sabablari: pirotexnika

buyumlaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida jarohatlanish holatlarining ko'payishi, yong'in va portlashlar xavfining yuqoriligi, jamoat xavfsizligiga real tahdidlarning kelib chiqanligi hisoblanadi. Keyingi yillarda, xususan 2020–2021-yillardan boshlab, pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasiga nisbatan javobgarlik choralari yanada kuchaytirildi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra: pirotexnika buyumlarini noqonuniy ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va olib kirish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi(MJtK-185¹-modda); ayrim holatlarda, og'ir oqibatlar yuzaga kelganda jinoiy javobgarlik ham nazarda tutilgan(250-250¹-moddalar).

Bugungi kunda O'zbekistonda ichki ishlar organlari tomonidan olib borilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 2024-yilda protexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jami 3641 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan, 8,9 milliard so'mlik pirotexnika vositalari olib qo'yilgan, 1941 nafar huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortilgan va 26 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. 2025 yil boshidan buyon Bojxona organlari tomonidan 7,25 milliondan ortiq pirotexnika buyumlari (qiymati 2,3 milliard so'mdan ziyod) olib qo'yilib ularning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilgan.

2025-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan “Protexnika buyumlarining muomalasi to'g'risidagi” qonunga muvofiq pirotexnika buyumlari tasnif qilinadigan besh xavflilik toifasi joriy qilindi: I toifadagi pirotexnika vositalari — **xavfsizlik radiusi 0,5 metr bo'lgan, xavfsiz hisoblangan vositalar** (bengal chiroqlari, stol fontanlari, xlopushkalar) erkin muomalada bo'lishi mumkin. Ruxsat etilgan pirotexnika vositalari qat'iy chegaralangan bo'lib, I toifa vositalari tashqi hududlarda yoki mustaqil bayramlarda erkin sotilishi va ishlatilishi mumkin.

II–V toifadagi vositalar — **yuqori xavfga ega bo'lgan pirotexnika buyumlari** fuqarolar uchun taqiqlandi yoki faqat maxsus ruxsat ostida foydalanilishi lozim bo'ladi. Ushbu toifadagi pirotexnika vositalaridan foydalanish faqat maxsus

ruxsatnomalar bilan yoki ma'lum sharoitlarda (masalan, davlat yoki san'ati tadbirlari, rasmiy ko'ngilochar tadbirlar) amalga oshiriladi.

Pirotexnika vositalarining qonuniy muomalasi — bu ularning amaldagi qonunchilikda belgilangan tartib, shart va cheklovlarga to'liq rioya etilgan holda amalga oshiriladigan muomalasidir. II-V toifadagi protexnika vositalaridan foydalanishga faqatgina ruxsatnoma bilan maxsus tashkilotlar, letsinziyaga ega yuridik shaxslar, professional mutaxassislar foydalanishiga ruxsat etiladi.

Pirotexnika vositalarining noqonuniy muomalasi — bu ularning qonunchilikda belgilangan talab va cheklovlarni buzgan holda ishlab chiqarilishi, saqlanishi, sotilishi, olib kirilishi yoki foydalanilishidir. Tegishli davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomasiz Pirotexnika vositalarining noqonuniy muomalasi deganda protexnika vositalarini sotish, saqlash, ishlatish, tayyorlash shuningdek, internet orqali orqali noqonuniy sotish yoki import qilish kabi harakatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin Pirotexnika vositalarining muomalasi xorijiy davlatlarda xususan yevropa Ittifoqida 2013/29/EU Direktiva asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatga ko'ra pirotexnika buyumlari xavflilik darajasiga qarab F1–F4 toifalarga bo'linadi. F1 toifa — xavfi minimal bo'lgan vositalar (bengal chiroqlari, kichik dekorativ vositalar) aholiga ruxsat etiladi, F2–F3 — faqat ma'lum yoshdan ya'ni 18 hamda 21 yoshdan oshgan shaxslar, F4 toifadagi pirotexnika vositalari faqat professional pirotexniklar tomonidan foydalanishga ruxsat etiladi. Aynan bir davlatga to'xtaladigan bo'lsak Germaniya Federativ Respublikasida (GFR) pirotexnika vositalaridan foydalanish “Portlovchi moddalar to'g'risidagi” qonuni (“Sprengstoffgesetz”) bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga muvofiq fuqarolar yangi yil arafasida cheklangan davrda F2 toifadagi protexnika vositalaridan foydalanishga ruxsat etiladi. Ruxsatnomasiz sotish yoki foydalanish uchun GFR Jinoyat kodeksiga muvofiq 50 000 yevrogacha jarima hamda 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida pirotexnika vositalardan foydalanish Texnik reglamentlar hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan tartibga

solinadi. Ushbu davlatda ham pirotexnika vositalari 4 ta toifaga ajratilgan bo'lib, quyidagilardan iborat:

I toifa- eng past xavfli pirotexnika vositalari hisoblanib, ushbu toifaga bengal chiroqlari, turli xil shamlar, har xil paqildoqlar (xalapushka) kiradi. Ushbu davlatning qonunchiligiga muvofiq barcha fuqarolar I toifadagi pirotexnika vositalaridan erkin foydalana olishadi.

II toifa – past xavfli pirotexnika vositalari hisoblanadi. Ushbu toifa yer usti pirotexnika vositalarini o'z ichiga olib, 18 yoshdan oshgan shaxslar foydalanishga ruxsat etiladi. Ushbu toifaning e'tiborli jihati shundaki II toifadagi pirotexnikani faqatgina ochiq maydonlarda foydalanish shart hisoblanadi.

III toifa – o'rtacha xavfli pirotexnika vositalar ya'ni kuchli portlovchi effektini beruvchi pirotexnik vositalarni o'z ichiga oladi hamda uchbu toifa oddiy fuqarolar uchun cheklangan hisoblanib faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslargina foydalanishi mumkin.

IV toifa - yuqori xavfli pirotexnika vositalar bo'lib, yirik portlovchi pirotexnik vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu toifadagi pirotexnikalardan foydalanish uchun ruxsatnoma talab qilinadi hamda faqatgina letsinziyaga ega shaxslar tomonidan foydalanishga ruxsat etiladi. Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy hamda Jinoyat kodekslariga muvofiq pirotexnika vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish 15 000 rublgacha jarima yoki 6 yilgacha ozodlikdan mahrum qiish bilan jazo belgilangan.

Bugungi kunda pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi va ulardan foydalanish bilan bog'liq huquqbuzarliklar jamoat xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga real tahdid tug'dirayotgan ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu holat milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini aniqlashtirish hamda profilaktik mexanizmlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Avvalo, pirotexnika buyumlari tushunchasining qonun darajasida aniq va batafsil belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda

ushbu tushunchaning yetarlicha aniqlashtirilmaganligi huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilishda turli talqinlarga sabab bo'lmoqda. Shu bois pirotexnika buyumlarini ularning texnik xususiyatlari, portlash quvvati va xavflilik darajasiga ko'ra tasniflash orqali aniq huquqiy ta'rif berish huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlaydi hamda noqonuniy muomalani yashirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, pirotexnika buyumlaridan noqonuniy foydalanish uchun javobgarlikni differensiallashtirish zarur. Huquqbuzarlikning sodir etilish sharoiti, foydalanish joyi, subyektning ijtimoiy holati hamda yuzaga kelgan oqibatlar inobatga olinmagan hollarda jazolash mexanizmi o'zining profilaktik ahamiyatini yo'qotadi. Shu sababli javobgarlik choralarini huquqbuzarlikning xavflilik darajasiga qarab bosqichma-bosqich kuchaytirish jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi chegarani aniq belgilash zarurati mavjud. Pirotexnika buyumlaridan foydalanish jarayonida real xavf tug'dirish darajasi, jamoat xavfsizligiga yetkazilgan tahdid va zarar ehtimoli asosiy mezon sifatida qonunchilikda mustahkamlansa, huquqni noto'g'ri qo'llash holatlari kamayadi hamda tergov va sud amaliyoti yanada soddalashadi. Ruxsat etilgan pirotexnika buyumlari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish ham alohida ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonuniy muomaladagi pirotexnika vositalari noqonuniy qayta ishlanib, xavflilik darajasi sun'iy ravishda oshirilmoqda. Shu munosabat bilan sertifikatlash tizimini takomillashtirish, mahsulotlarni maxsus identifikatsiya belgilar bilan jihozlash va noqonuniy modifikatsiya uchun alohida javobgarlik belgilash noqonuniy bozor hajmini qisqartirishga xizmat qiladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining huquqiy ongini oshirish, pirotexnika buyumlarining xavflilik darajasi haqida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Bu

jarayonda ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi va ulardan foydalanish masalasi faqat ma'muriy nazorat doirasidagi muammo bo'lib qolmay, balki jamoat xavfsizligi va huquqiy tartibotga bevosita tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Pirotexnika buyumlarining yaratilish tarixi va rivojlanish bosqichlari, ularning texnik murakkabligi hamda xavflilik darajasi mazkur vositalarni qat'iy huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Shu sababli milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarning izchil amalga oshirilishi pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasini sezilarli darajada kamaytirishga, huquqbuzarliklarning oldini olishga hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy standartlarga mos, zamonaviy va profilaktik yo'naltirilgan huquqiy siyosatini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. — Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir.
4. O'zbekiston Respublikasining "Pirotexnika buyumlarining muomalasi to'g'risida"gi Qonuni. 2025-yil 1-noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pirotexnika buyumlarining muomalasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2009-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Bojxona qo‘mitasining pirotexnika buyumlari muomalasiga oid statistik va axborot materiallari. — 2024–2025-yillar.
7. Xudoyberdiyev B.B. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
8. Saidov A.X. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlash masalalari. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2020.
9. European Parliament and Council Directive 2013/29/EU of 12 June 2013 on the harmonisation of the laws of the Member States relating to the making available on the market of pyrotechnic articles.
10. Sprengstoffgesetz (Gesetz über explosionsgefährliche Stoffe). Bundesrepublik Deutschland. — Amaldagi tahrir.
11. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksi. — Moskva, amaldagi tahrir.
12. Rossiya Federatsiyasining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi. — Moskva, amaldagi tahrir.
13. Иванов И.В. Пиротехнические изделия: правовое регулирование и общественная безопасность. — Москва: Юрист, 2019.
14. Смирнов А.А. Административная ответственность за незаконный оборот пиротехнических средств // Юридический журнал. — 2021. — №4.
15. UN Office on Drugs and Crime (UNODC). **Guidance on explosive materials and public safety.** — Vienna